

Ona Vatan

Vatanimdek bag'ri keng onam,
Onam kabi mehribon Vatan.
Ikkingizni birday sevaman,
Azizlarim – onajon, Vatan.

Dildoraxon Imomaliyeva







Ikkinchi sentabr

– Va alaykum
assalom!

o'qituvchi

– Assalomu
alaykum!

o'quvchi

– Salom!
Yaxshimisan?

– Salom!
Rahmat,
yaxshiman.

**So'zlashuv mashqi**

Madina: Salom, Sardor.

Sardor: Salom, Madina.

Madina: Sardor, yaxshimisan?

Sardor: Rahmat, yaxshi.

Madina: Aziza, sen-chi?

Aziza: Rahmat, yomon emas. Sardor, kayfiyating yaxshimi?

Sardor: Juda yaxshi.

Aziza: Madina, o'qishlaring qanday?

Madina: O'qishlarim a'lo.

1

**“Salom, maktab” qo'shig'i**

2

**o'quvchilar****6–7-betlardagi salomlashish suhbatini eslab qoling.**